

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Arxivshunoslik kafedrası

Mavlonov Adham

IBTIDOIY JAMIYAT TARIXI

(REFERAT)

NAMANGAN-2016

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA-MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI  
IJTIMOIY-IQTISODIYOT FAKULTETI  
TARIX YO'NALISHI  
1-BOSQICH, 101-GURUH TALABASI  
NORQO'ZIYEV ALIMARDONNING  
IBTIDOIY JAMIYAT TARIXI FANIDAN  
TAYYORLAGAN

# **R E F E R A T I**

**MAVZU: PATRIARXAT.**

**NAMANGAN - 2016**

# **MAVZU: PATRIARXAT**

## **REJA:**

Kirish.

1. Patriarxat tushunchasi mohiyati.
2. Matriarxatdan patriarxatga o`tilishi sabablari.
3. Patriarxal oila va patronomiya.

Xulosa.

Foydalangan adabiyotlar va manbalar ro'yxati.

## **Kirish.**

Mustaqilikka erishganimizdan boshlab mamlakatimiz hayotida tub o`zgarishlar yuz berdi. O`z mustaqilligini qo`lga kiritgan O`zbekiston Respublikasi milliy davlatchiligini barpo qilish bilan bir qatorda xalqaro maydonda ham o`zining barqaror tashqi va ichki siyosati, buyuk va qadimiy tarixi, takrorlanmas ma`naviy merosi va milliy qadriyatlari bilan dovrug` tarata boshladi. Garchi mustabid sho`rolar hukmronligi davrida O`zbekiston tarixi fani to`laqonli tadqiqotini amalga oshira olmagan bo`lsada, o`zining boy tarixiy merosini ko`z qorachig`idek asrab keldi. Bu tarix sahifalari xalqimizning boy o`tmishini bizgacha yetkazib bera olgan qo`lyozma asarlarimiz va xalqimizning xotirasi edi. Ma`naviy hayotning ajralmas qismi bo`lgan tarixga yangicha ko`z bilan, xolisona, ilmiy jihatdan hech bir mafkuraviy aqidasiz yondashish imkoniyati bo`ldi. Avvalo, tarixiy xotirasini tiklash, haqqoniy tarixini yaratish vazifasi qo`yildi. — Tarix xotirasi, xalqning, jonajon o`lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash, milliy o`zlikni anglash, ta`bir joiz bo`lsa, milliy iftixorni tiklash va o`stirish jarayonida g`oyat muhim o`rin tutadil, - deb ta`kidlaydi O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov.<sup>1</sup>

Mazkur jarayonda o`zbek davlatchiligini tarixi o`rganish, uni xolisona tahlil etish muhim omillaridan biri hisoblanadi. —... o`zbek tarixchilarining bugungi kundagi asosiy vazifasi... davlatchiligimizni ilmiy nuqta`i nazardan asoslangan tarixini yaratishdir, - deb ta`kidlaydi O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov.<sup>2</sup> Albatta yuqorida ta`kidlanganimizdek mustaqillik biz uchun, tariximiz uchun qorong`u sahifalarni yanada oydinroq yoritish imkoniyatini yaratib beradi. O`tgan yaqin yillar oralig`ida ajdodlarimizning yuzlab qo`lyozma asarlari dunyo yuzini ko`rdi. Respublikamizda va xorijda minglab nusxalarda nashr etildi. Bu ham tariximizning boy o`tmishiga va merosiga ko`rsatilgan ehtirom va e`tirofdir.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`lag`asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-T.: O`zbekiston,1997.-b.140.

<sup>2</sup> Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. -T: Sharq. 1998- b12.

Ayniqsa yaxshi bo`lgan ekologik zonalarda ibtidoiy jamoaning parchalanish jarayoni mil. avv. 3-2 ming yilliklarga kelib tugallandi Okeaniya Afrika va Amerikaning ayrim zonalarida esa u bugungi kungacha tugallanmagan deb hisoblanadi. O`zining makon va zamonda yirik o`lchamlarni egallagan ushbu jarayon turli konkret- tarixiy jamiyatlarda o`ziga xos xususiyatlarga ega edi. Bular tabiiy muxitning o`ziga xosligi xo`jalik faoliyatini yo`nalishlari atrofidagi ibtidoiy qabilalarga oldinroq shakillangan sivilizatsiyaning ta'siri, ushbu jarayonning tezligi bilan bog`liqdir. Biroq ibtidoiy urug` jamoasining parchalanishi variantlari o`ziga xos va turlicha bo`lsa ham ular ikkita asosiy formaga borib taqaladi va patriariatxat hamda kechki matriarxat deb ataladi.

Ishlab chiqarish kuchlarining yuksalishi jinslar o`rtasida mehnatning taqsimlanish tartibini o`zgartiradi. Qo`sh yordamida er haydash erkaklar mehnat soxasi bo`lib qoladi. Chorvachilik erkaklar ishi bo`lib, ayrim qabilalarda ayollar hayvonlar oldiga yaqinlashish ham taqiqlanadi. Metallurgiya ham erkaklarga hos mehnat bo`ladi. Draxtlarni kesish, irrigatsiya ishlarida ham erkaklarga xos mehnati talab qilinadi. Asta-sekin ayollar mehnati uy-ro`zg`or ishlari bilan chegaralanib qoladi. Kulolchilik va to`qimachilik, xunarmanchilikning ixtisoslashgan soxalariga aylanishi ham ayollar mehnatini o`z mavqeini yuqotishga olib keladi.<sup>3</sup>

Mehnatning taqsimotida yuz bergan o`zgarishlar bilan bir qatorda jamiyatdagi o`rni ham o`zgardi. Ishlab chiqarishda asosiy rol o`ynagan erkak oila va jamiyatda hukmron o`rni egallashga intiladi, ona urug`i qoidalarini patriarxat bilan almashinuviga olib keladi. Urug` jamoasining parchalanish formasi patriarxat turli jamoalarda turli davrlarda yuzaga keladi. Masalan, motiga-dehqonchilik jamoalarida ona urug`i an'analari tomondan ushbab turib urug` jamoasi tuzumi kechki matriarxat formasida bo`lib o`tganligi kuzatiladi.

---

<sup>3</sup> Отаев У. «Ибтидоий маданият тарихи». Гулистон, 2009. – Б. 24

Patriarxatga o'tish jarayoni ho'jalik, ijtimoiy mafkuraviy hayotnig barcha sohalarini qamrab olgan. Birinchi navbatda u alohida oilalar va oila nikoh munosabatlarini qamrab olgan. Alohida oilalar kuchi bilan ho'jalik yuritish ularni mustahkam, yagona jamoalarga aylanishi talab etardi. Bunda mustahkam bo'lmagan juft nikohlar oila formasi bilan almashina boshladi. Erkaknig ho'jalikdagi rolini o'sib borishi endilikda erkakni ayolnikii emas balki ayolni erkaknikiga ko'chish talab qilardi. Yaxshi uskorilokal manzildan parilokal manzilga yoki varilokal manzilga o'tiladi. Erkak ayolni o'zinikiga olib ketadi, uning qiymatini to'lar, uning mehnat kuchini sotib olar edi. Shu tariqa sotib olish nikohi paydo bo'ldi. Uksorilokalning varilokallikka o'tish jarayoni juda murakkab jarayon bo'lib, avunkulat oilasi otaliq oila kabi o'tish formalarini ham o'z ichiga oladi.<sup>4</sup>

Alohida oilalarning paydo bo'lishi, jamoa mulkchiligidan alohida bo'lgan oilaviy mulkchilikning paydo bo'lishiga olib keladi. Bu mulkni erkak o'z bolalariga meros qoldirishga intiladi. Qarindoshlikning onalik hisobi otalik hisobi bilan almashinadi. Alohida oilalarning ilk formasi katta oila bo'lib, u katta oilaga yoki uy jamoasi deb ham ataldi. Keyinchalik bu oilalar patriarhal oilalarga aylandi. Katta patriarxal oila ota tomonidan qarindosh bo'lgan bir nechta avloddan tashkil topgan. Masalan bizda ham bir nechta aka-uka o'z oilalari bilan bitta hovlida yashab bitta qozonda ovqatlanadi. Partiarhal oilalar ho'jalik jixatidan o'zaro yordam umumiy e'tiqot, umumiy nom bilan atalardi. Bu guruxlar Kosven M.O. tomonidan «Patronimiya»lar deb atalib ular ikkiga bo'linadi: geniologik va lokal qarindoshlining xotinldari bilan birgalikda tub jamoa. Kechki matriarxat kam yoyilgan bo'lib, kam o'rganilgan ham u makronizialiklar, malayliklar ashantiylar, tropik Afrikaning ayrim xalqlari va uchun xosdir. Ularda sinflar va davlatlar matriarxatdan patriarxatga o'tmasdan shakllangan.

Eng qadimgi ilk quldorchilik va undan keyin tashkil topgan ilk feodal davlatlarga qo'shnichilik jamoasining saqlanishi xos bo'lgan. Uni tadqiqotchilar ibtidoiy jamoa

---

<sup>4</sup> Кабиров А. Ибтидоий жамият тарихи. (Маърузалар матни). - Т. ЎзМУ. 2001. – Б. 58

tuzumi meosi deb hisoblaganlar-erli-er suvli va ovulli yoki o`tloq-ko`chmanchi (ko`chmanchi chorvadorlardir). Ular uchun shu bilan birga oddiy, yarim patriarxal qul yoki dehqon mehnatini ekspulutatsiya qilish formalari xos bo`lgan.

Osiyo, Afrika va amerika ilk sinfiy jamiyatining ko`pchiligi klassik antik jamiyatlarda jamoat mulkchiligini mustaxkam ekanligi va quldorlikning unchalik rivojlamaganligi bilan farq qiladi. Bu o`ziga xos bo`lgan xususiyat o`larga xos bo`lgan Osiyocho ishlab chiqarish usuli to`g`risidagi baxslarga sabab bo`ladi.

Feodal davrida «varvarlik» istilolari bilan jonlantirilgan qo`shnichilik jamoa u yoki bu ko`rinishda taraqqiyotning turli bosqichlarida turgan bo`lib. Ayrim xollarda masalan. Rossiya kapitalizm davrigacha yashab kelgan. Quldorlik jamiyatda ham, feodal jamiyatda ham kichik oila bilan bir qatorda uzoq vaqt katta oila saqlanib kelgan. Sinfiy muxitda uning yorqin namunasi sifatida qadimgi rim «familiya» sini keltirish mumkin. Patriarxal –urug`chilik aloqalari qoldiqlari formasi (ayrim tadqiqotchilar fikri bo`yicha yangi tashkil topgan) patronimiya bo`lib, u katta oila bo`linganida vujudga kelardi va qo`shnichilik jamoa ichida ajralib turar edi. Ko`plab halqlarda (arman, gruzinlar, moldavanlar, ukrainlar, beloruslar, bolgarlar, arablar va bosh.) patronimiya so`nggi o`rta asrlargacha saqlangan.<sup>5</sup>

Ayrim ilk sinfiy jamiyatlarda ular boshqalardan nisbatan alohida yashaganliklari sababli yoki boshqa sabablar sust rivojlangan bo`lib, ibtidoiy jamoa munosabatlarning so`nggi patriarxal formasi ayniqsa uzoq vaqt saqlangan. Masalan Afg`oniston Nuristonliklari, janubiy Xitoydagi ayrim xalqlari yaqin vaqtlargacha patriarxal - quldorlik tuzumida yashab kelganlar. Tog`li xalqlarning ko`pchiligida ham (masalan, Shimoliy Kavkaz xalqlari. Pomir tojiklari, yagnobliklar, kurdlar va bosh.) patriarxal-feodal munosabatlar uzoq saqlanib kelgan. Feodal davlatlar tarkibiga kirgan ko`chmanchi chorvadorlarda o`zlarida feodal ekspulutatsiyaning eng oddiy patriarxal formalari rivojlantirganlar. Biroq o`troq dehqonlardan farqli ularoq bu

---

<sup>5</sup> Отаев У. «Ибтидоий маданият тарихи». Гулистон, 2009. – Б. 25

formalarni uzoqroq ushlab turganlar, chunki ko`chmanchi xo`jalikning imkoniyatlari chegaralangan edi. Shuning uchun ham feodalizm «ko`chmanchilik» ko`rinishi haqida ham olimlar fikr yuritishgan.

Patriarxal-feodal tuzum sharoitida tog`liklarda, ayniqsa ko`chmanchi chorvadorlar urug`-qabilaviy bo`linilar, patriarhal urug`chilik an'analar, xokimiyatning qabilaviy va xarbiy demokratik yoki harbiy ierarxik tashkiloti saqlanib qolgan.

Matriarxat zamonida jinslarning alohida yashashlari munosabati bilan vujudga kelgan erkaklar uylari erkaklarning jamoda ustunlik kiluvchi ta'sirga ega bo'lish uchun kurashda tayanch markazlar bo'lgan. Balog`atga etgan buydoqlar va initsiatsiyadan o'tgan yoshlar ana shu erkaklar uylarida turganlar. Erkaklar uylari urug` jamoasi erkaklarining yig'ilish joylari bo'lib, ular bo'sh vaqtlarini ana shu erda utqazishgan.

Matriarxatdan patriarxatga o'tish davrida erkaklar uylarida sifat jihatidan yangi sotsial ahamiyatga ega bo'lgan erkaklar ittifoqlari yuzaga kelib, keng yoyilgan. Bu ittifoqlar ayollar ta'sirini tugatishga qaratilgan bo'lib, ular xotin-qizlarni teror qilishgan. Erkaklar ittifoqlari o'z a'zolarini va ularning mol-mulklarini qo'riqlashar, ularning jamoda ta'sirli (nufuzli) mavqeini ta'minlashar edi. Ularning vazifalarida (funktsiyalarida) jamoat hokimiyati elementlari aniq ko'rinardi. Oqibatda erkaklar ittifoqlari patriarxating tashkil topishiga yordam beradigan organdan boy urug` yuqori tabaqasi hokimiyatini qaror toptirish organiga aylandi. Ittifoqqa a'zo bo'lish boylik bilan belgilanadigan bo'lib qolgan. Ittifoqlar ichida darajali bo'linish paydo bo'lgan.

Ittifoqqa kirish va darajalar (ranglar) bosqichlari bo'ylab yuqori amalga (martabaga) erishish boylik miqdorlari bilan belgilangan. Ittifoq kengashiga eng boy, demak, eng nufuzli odamlar kirgan. Kambag'allar ittifoqqa kira olmaganlar. Ittifoqda og'alik (kattalik) o'rnini boylik egallaydi va mulkiy jamg'arma orqali hokimiyat sari yul ochiladi. Melaneziyada saqlanib qolgan yashirin erkaklar ittifoqlari bu jihatdan ibratlidir.



Patriarxat matriarxat singari universal bosqichdir. Ayrim burjua tarixchilari tarixiy rivojlanishning qonuniyatli yulini noto'g'ri talqin qilib, bir xil xalqlar o'z yo'lini matriarxat taraqqiyotidan, boshqa xalqlar patriarxat boshlaganlar, deb da'vo qiladilar. Matriarxatdan rivojlana boshlagan xalqlar, ularning fikricha, o'z taraqqiyotida orqada qolishgan. Patriarxatdan rivojlana boshlagan xalqlar esa ijtimoiy taraqqiyotning yuqori bosqichlariga ko'tarilgan emish. Bunday da'volarning asosi yo'q. Hamma xalqlar matriarxatdan rivojlana boshlaganlar. Qabilalarning rivojlanish sur'ati ichki va tashqi xarakterdagi turli xil sabablarga bog'liq bo'lgan. Matriarxatdan patriarxatga o'tish ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishiga asoslanadi; bu o'sish ilgariroq rivojlangan xo'jalik formalarining yanada takomillashishiga olib kelgan. Etnografik material shuni ko'rsatadiki, muayyan taraqqiyot darajasiga etgan har qanday xo'jalik asosida, masalan, ixtisoslashtirilgan ovchilik baliq tutish xo'jaligi negizida (SHimoliy Amerikaning shimoli-g'arbiy soxili qabilalarida) ham ota urug'ining vujudga kelish jarayoni sodir bo'ladi. Dehqonchilik va chorvachilik asosida ota urug'iga o'tish eng qulay va keng tarqalgan o'tishdir.<sup>6</sup>

Dengiz hayvonini ovlash bilan shug'ullangan qirg'oq buyi chukchalari va bug'u ovlovchi chukchalar patriarxatning remekt vakillaridir. CHukchalarning harbiy asirlardan qullari va sotib olingan qullari bo'lgan, ularda mulkiy tengsizlik ruy bergan. SHuningdek, YAngi Gvineyaning Xachen tog'i papuaslari patriarxat polizchilik, chuchka podalari, dastlabki qullar bo'lganligi, erkin odamlarning kambag'allar va boylarga bo'linganligi aniqlangan. Boylarning 40 tagacha chuchkasi bo'lgan, bir necha xotin sotib olishgan. Temir asrining boshlanishi. Ikkinchi ijtimoiy mehnat taqsimoti. Ibtidoiy jamiyat texnikasi ayniqsa temir davrida ilgarilab ketgan. Temir o'zidan yuitlgarigi mis va bronzaga nisbatan ulkan ustunlikka ega bo'lgan. Yangi material bronzadan qattiqroq, bolg'alab yasaladigan, tabiatda eng ko'p uchraydigan metallidir. Temir rudalar, ayniqsa tuqay rudalari hamma erda bor bo'lgan. Odamlar temirdan foydalanishni keyinroq o'rganishgan, chunki u baland

---

<sup>6</sup> Nazarov O.R. "Ibtidoiy jamoa tarixi" (ma'ruzalar to'plami). Guliston 2006. –B. 13

temperaturada-1530 dan eriydi. SHuning uchun dastlab ibtidoiy temirchilik uchog'i yordamida, ya'ni unga temir rudasi va pista ko'mirni to'ldirib solib 1100 va undan baland temperaturada shlak bilan aralashgan hamirsimon massa-kreshdni hosil qilishgan. Ko'mirning yonishi va temperaturani oshirish uchun qo'l bosqoni yordamida dam berish bilan qulay sharoit yaratilgan. Temirga bunday ishlov berish rudadan bevosita temir ajratib olish usuli deb ataladi.<sup>7</sup>

Patriarxal munosabatlar tarkib topishi bilavn birga erkak avlodlari (o'g'illari, nabiralari, evaralari va ularning bolalari)dan iborat patriarxal oila paydo bo'lgan. Qullar shu oilalar tarkibiga kirgan. Tarixiy adabiyotda patriarxal oila oilaviy jamoa yoki uy jamoasi deb ataladi.

Oila jamoasi jamiyatning iqtisodiy yacheykasi bo'lgan, u urug' erida xo'jalikni birgalikda boshqargan. Eng keksa erkak butun oila hayotiga rahbarlik qilgan. U o'z faoliyatida oila jamoasining barcha katta yoshli a'zolari bilan maslahatlashib turgan. Uy jamoasining a'zolari umumiy turar joyida yashaganlar, bir qozondan ovqatlanganlar, birgalashib mehnat qilganlar va mol-mulkka birgalikda egalik qilganlar.<sup>8</sup>

O'sib borgan katta oilada yagona uy xo'jaligini boshqarish qiyinlashib qolgan vaqtda oila jamoasi qismlarga bulingan. Har bir qism vaqtning o'tishi bilan yangi patriarxal oilaga aylanib borgan, u ayrim holda yashagan va uy xo'jaligini mustaqil idora qilgan. Bir oilaviy jamoaning bo'linib ketishi natijasida tashkil topgan qarindosh patriarxal oilalar gruppasi tarixda patronimiya nomini olgan. Patriarxal oilalar va patronimiyalarning jami patriarti urug' jamoasini tashkil qilgan; uning iqtisodiy mohiyati o'z a'zolarini ishlab chiqarish vositalari bilan, xo'jalikda o'zaro yordam va ijtimoiy birdamlikni ta'minlashdan iborat bo'lgan. Urug' patronimiyalar va oilalar o'rtasida taqsimlangan erning oliy mulkdori sifatida ish ko'rgan. Patriarxal urug' jamoasi xo'jalik yacheykasi bo'lmagan.

---

<sup>7</sup> Отаев У. «Ибтидоий маданият тарихи». Гулистон, 2009. – Б. 28

<sup>8</sup> Кабиров А. Ибтидоий жамият тарихи. (Маърузалар матни). - Т. ЎзМУ. 2001. – Б. 59

Urug'ning negizi kelib chiqish (bir gineologik nasl-nasabdan paydo bo'lish) umumiyliigi bilan, bir joyda yashash va diniy e'tiqod bilan saqlangan. Umum urug' ishlarini hal qilish uchun ba'zi-ba'zida patriarxal oilalar boshliqlari yig'ilishi chaqirilib turgan. Urug' jamoasida diniy e'tiqod boshligi va urug' rivoyatlarini, an'analarini biluvchi (saqlovchi) odam bo'lgan.<sup>9</sup>

---

<sup>9</sup> Nazarov O.R. "Ibtidoiy jamoa tarixi" (ma'ruzalar to'plami). Guliston 2006. – B. 18

## Xulosa

Ishlab chiqarish kuchlarining yuksalishi jinslar o`rtasida mehnatning taqsimlanish tartibini o`zgartiradi. Qo`sh yordamida er haydash erkaklar mehnat soxasi bo`lib qoladi. Chorvachilik erkaklar ishi bo`lib, ayrim qabilalarda ayollar hayvonlar oldiga yaqinlashish ham taqiqlanadi. Metallurgiya ham erkaklarga hos mehnat bo`ladi. Draxtlarni kesish, irrigatsiya ishlarida ham erkaklarga xos mehnati talab qilinadi. Asta-sekin ayollar mehnati uy-ro`zg`or ishlari bilan chegaralanib qoladi. Kulolchilik va to`qimachilik, xunarmanchilikning ixtisoslashgan soxalariga aylanishi ham ayollar mehnatini o`z mavqeini yuqotishga olib keladi.

Mehnatning taqsimotida yuz bergan o`zgarishlar bilan bir qatorda jamiyatdagi o`rni ham o`zgardi. Ishlab chiqarishda asosiy rol o`ynagan erkak oila va jamiyatda hukmron o`rni egallashga intiladi, ona urug`i qoidalarini patriarxat bilan almashinuviga olib keladi. Urug` jamoasining parchalanish formasi patriarxat turli jamoalarda turli davrlarda yuzaga keladi. Masalan, motiga-dehqonchilik jamoalarida oan urug`i an'analari tomnidan ushbab turib urug` jamoasi tuzumi kechki matriarxat formasida bo`lib o`tganligi kuzatiladi.

Patriarxatga o`tish jarayoni ho`jalik, ijtimoiy mafkuraviy hayotning barcha sohalarini qamrab olgan. Birinchi navbatda u alohida oilalar va oila nikoh munosabatlarini qamrab olgan. Alohida oilalar kuchi bilan ho`jalik yuritish ularni mustahkam, yagona jamoalarga aylanishi talab etardi. Bunda mustahkam bo`lmagan juft nikohlar oila formasi bilan almashina boshladi. Erkakning ho`jalikdagi rolini o`sib borishi endilikda erkakni ayolnikii emas balki ayolni erkaknikiga ko`chish talab qilardi. Yaxshi uskorilokal manzildan parilokal manzilga yoki varilokal manzilga o`tiladi. Erkak ayolni o`zinikiga olib ketadi, uning qiymatini to`lar, uning mehnat kuchini sotib olar edi. Shu tariqa sotib olish nikohi paydo bo`ldi. Uksorilokalning varilokallikka o`tish jarayoni juda murakkab jarayon bo`lib, avunkulat oilasi otaliq oila kabi o`tish formalarini ham o`z ichiga oladi.

Partiarhal oilalar ho`jalik jixatidan o`zaro yordam umumiy e'tiqot, umumiy nom bilan atalardi. Bu guruxlar «Patronimiya»lar deb atalib ular ikkiga bo`linadi: geniologik va lokal qarindoshlining xotinldari bilan birgalikda tub jamoa. Kechki matriarxat kam yoyilgan bo`lib, kam o`rganilgan ham u makronizialiklar, malayliklar ashantiylar, tropik Afrikaning ayrim xalqlari va uchun xosdir. Ularda sinflar va davlatlar matriarxatdan patriarxatga o`tmasdan shakllangan.

Patriarxal –urug`chilik aloqalari qoldiqlari formasi (ayrim tadqiqotchilar fikri bo`yicha yangi tashkil topgan) patranomiya bo`lib, u katta oila bo`linganida vujudga kelardi va qo`shnichilik jamoa ichida ajralib turar edi. Ko`plab qalqlarda (arman, gruzinlar, moldavanlar, ukrainlar, beloruslar, bolgarlar, arablar va bosh.) patronimiya so`nggi o`rta asrlargacha saqlangan.

Patriarxat matriarxat singari universal bosqichdir. Ayrim burjua tarixchilari tarixiy rivojlanishning qonuniyatli yulini noto`g`ri talqin qilib, bir xil xalqlar o`z yo`lini matriarxat taraqqiyotidan, boshqa xalqlar patriarxat boshlaganlar, deb da`vo qiladilar. Matriarxatdan rivojlana boshlagan xalqlar, ularning fikricha, o`z taraqqiyotida orqada qolishgan. Patriarxatdan rivojlana boshlagan xalqlar esa ijtimoiy tarqqiyotning yuqori bosqichlariga ko`tarilgan emish. Bunday da`volarning asosi yo`q. Hamma xalqlar matriarxatdan rivojlana boshlaganlar. Qabilalarning rivojlanish sur`ati ichki va tashqi xarakterdagi turli xil sabablarga bog`liq bo`lgan. Matriarxatdan patriarxatga o`tish ishlab chiqaruvchi kuchlarning o`sishiga asoslanadi; bu o`sish ilgariroq rivojlangan xo`jalik formalarining yanada takomillashishiga olib kelgan. Etnografik material shuni ko`rsatadiki, muayyan taraqqiyot darajasiga etgan har qanday xo`jalik asosida, masalan, ixtisoslashtirilgan ovchilik baliq tutish xo`jaligi negizida (SHimoliy Amerikaning shimoli-g`arbiy soxili qabilalarida) ham ota urug`ining vujudga kelish jarayoni sodir bo`ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`lag`asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-T.: O`zbekiston,1997.- 395 b.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. –T.: Sharq. 1998 – 98 b.
3. Отаев У. «Ибтидоий маданият тарихи». Гулистон, 2009. – 87 б.
4. Кабиров А. Ибтидоий жамият тарихи. (Маърузалар матни). - Т.: ЎзМУ. 2001. – 74 б.
5. Nazarov O.R. “Ibtidoiy jamoa tarixi” (ma'ruzalar to`plami). Guliston , 2006. - 75 b.
6. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
7. [www.history.ru](http://www.history.ru)
8. [www.library.ru](http://www.library.ru)